

GLOBAL JARAYONLARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

ORTIQOV FARMONBOY RAXMON O'G'LI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 3-bosqich talabasi

E-mail: farmonboyortiqov1@gmail.com

Telefon raqami: +998997714505

SHARIPOV TULQIN SAIDAXMEDOVICH

“Real iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O'zbekiston

E-mail: sharipovtulqin942@gmail.com

Telefon raqami: +99898 271 35 36

A R T I C L E I N F O.

Abstract:

Keywords:

Global jarayon, milliy odiyot, savdo va xizmatlar, stitsiyalar, texnologiyalar, yaviy munosabatlar, xalqaro tizimi, intellektual (aqliy) obyektlari.

Mazkur maqolada global jarayonlarning milliy odiyotni rivojlanishiga ta'siri va natijalari haqida umotlar keltirilgan. Shuningdek, global tonlar orqali iqtisodiy tartib va barqarorlikni inlashda ham muhim vazifani o'z ichiga olgan satkichlar keng yoritib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kirish. Global jarayonlarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'siri juda katta. Dunyo mamlakatlari o'rtasida olib borilayotgan savdo, investitsiyalar, texnologiyalar va moliyaviy munosabatlar milliy iqtisodiyotni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PQ-4105-sonli “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorida ham global iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlar berilgan edi: “Mamlakatni qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrda barqaror va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashga, aholi farovonligini

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch

oshirish va uning eng muhim muammolarini hal etishga qaratilgan konsepsiylar, kompleks, maqsadli, tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, jahon bozorlaridagi vaziyatni hamda global iqtisodiyot rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda, taklif etilayotgan yechimlardan kutilayotgan makroiqtisodiy maqsadli natijalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini chuqr kompleks hisob-kitob qilish".

Adabiyotlar tahlili. Global jarayonlarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'siri juda katta. Dunyo mamlakatlari o'rtasida olib borilayotgan savdo, investitsiyalar, texnologiyalar va moliyaviy munosabatlar milliy iqtisodiyotni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

1. Savdo va xizmatlar: Globalizatsiya mamlakatlar o'rtasidagi savdo va xizmatlar almashishini kuchaytiradi. Mamlakatlar o'zlarining mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarish orqali yangi bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Investitsiyalar: Xalqaro korxonalar va investitsiyalar milliy iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Kapitalni jalb qilish, yangi sohalarda investitsiyalar qilish va innovatsiyalar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish globalizatsiya natijasida kuchayadi.

3. Texnologiyalar: Globalizatsiya texnologiyalar almashishini tezlashtiradi va mamlakatlar o'rtasidagi bilim almashishni kuchaytiradi. Yangi texnologiyalar o'zaro munosabatlarni rivojlantiradi va innovatsiyalarni tezlashtiradi.

4. Moliyaviy munosabatlar: Globalizatsiya moliyaviy munosabatlarni yanada kuchaytiradi. Xalqaro banklar, moliyaviy institutlar va korxonalar o'rtasidagi munosabatlar milliy iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

5. Xalqaro ish tizimi: Globalizatsiya mamlakatlar o'rtasidagi ish tizimini yanada integratsiyalashadi. Xalqaro korxonalar, tashkilotlar va tuzilmalar o'rtasidagi ish birliklarini kuchaytiradi va yangi ish o'rinnari yaratishga imkon beradi.

Globalizatsiya o'z ichiga xalqaro savdo, xizmatlar va kapitalni oladi hamda mamlakatlar o'zaro bog'lanishlarini yanada kuchaytiradi. Jahon xo'jaligi zamонавија globallashuvining asosiy xususiyatlaridan biri kapital, tovar va xizmatlar, ishchi kuchining erkin harakatida inson intellektual qobiliyatidan unumli foydalanish imkoniyatlarining ortishida namoyon bo'ladi. Ushbu omil ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarning globallashuv afzalliklaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish imkoniyatlari paydo bo'lib, shu bilan birga iqtisodiy siyosat yuritganda, uning e'tiborga olinmasligi salbiy oqibatlarga olib keluvchi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Globalashuv jarayoni jahon iqtisodiyotidagi turli jabhalarni qamrab olmoqda, ya'ni:

- tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual (aqliy) mulk obyektlarining milliy, xalqaro va jahon savdos;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati (tabiiy resurslar ishchi kuchi, kapital va texnologiyalar);

- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalar ko'lamining kengayishi (beg'araz moliyalashtirish va yordam, xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlariga kredit va zayomlar, qimmatbaho qog'ozlar savdosi, maxsus moliya mexanizmi va vositalari);
- ishlab-chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologiya va informatsion hamkorlikning chuqurlashuvi;
- o'zaro tovar almashuvidan ishlab chiqarish baynalrninallashuviga o'tilishi ya'ni bir nechta mamlakatlarning ishlab chiqaruvchilari ma'lum bir tayyor mahsulot yaratishda turli shakl va bosqichda ishtirok etishlari va pirovard natijada ishlab chiqarish baynalminallashuvining institutsional shakli sifatida transmilliy korporatsiyalaming vujudga kelishi;
- kapital baynalminallashuvi ya'ni mamlakatlar o'rtasida xalqaro kapital harakatining jadallahuvi (bevosita xorijiy investitsiyalarning tashqi savdo va ishlab chiqarishga nisbatan tez sur'atlar bilan oshib borayotganligi), fond bozori rivojlanish darajasining o'sishi;
- xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiya doirasida texnologik bilimlar, ilmiy-texnika vai ishlab chiqarish vositalari almashuvining kuchayishi;
- xalqaro hamkorlikni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi global moddiy, informatsiyaviy, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish;
- xalqaro savdo tizimidagi an'anaviy odatlarni sifat va ko'lam jihatidan o'zgartirish va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi asosida tovar almashuvining baynalminallashish darajasini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikning eng asosiy yo'nalishi sifatida moddiy ishlab chiqarishga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan xizmatlar sohasini rivojlantirish;
- ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining atrof muhitga ta'sirining kuchayishi va mazkur yo'nalishda xalqaro hamkorlikning kengayishi;
- va nihoyat ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi ko'lamining haddan ziyyod kengayishi. Rivojlanayotgan mamlakatlardan oqib kelayotgan ishchilar rivojlangan mamlakatlarda past yoki umuman malaka talab otmaydigan ishlarga jalb etilmoqdalar. Shu bilan birga, yuqori malaka talab etmaydigan, kam ish haqi to'lanadigan ish o'rinalarini to'ldirish uchun xorijiy ish kuchidan foydalanayotgan mamlakatlar immigratsiya miqdorini kerakli darajada ushlab turishga harakat qilmoqdalar.

Global iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, xususan innovatsiyalar va texnologiyalar o'rtasida bilim almashish va rivojlanishni tezlashtiradi. Bunday global jarayonlar mamlakatlarga yangi bozorlar ochish, xarajatlarni kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, globalizatsiya mamlakatlarga xalqaro savdo va investitsiyalar orqali kapitalni jalb qilish, yangi sohalarda ish yaratish va moliyaviy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatini

beradi. Shuningdek, mamlakatlar o'rtasida xalqaro iqtisodiy munosabatlar o'zaro ishonch va hamkorlikni rivojlantiradi.

Ma'lumki, o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida milliy xo'jalik tizimini takomillashtirish, shuningdek ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuviga erishish maqsadida mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va Yangilarini yaratishga ehtiyoj baland. Bunday sharoitda jahon kapital bozoriga chuqur integratsiyalashuv ushbu mamlakatlar uchun iqtisodiyotni isloh qilish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda investitsiyalarni keng jalb qilish orqali jahon moliya bozorlari afzalliklaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

"Birinchidan, davlatning global iqtisodga integratsiyasi va unda ustunlikka erishishi, avvalo, mamlakat ichida shakllanayotgan iqtisod, uning shakli, aniq yo'nalishi va ichki mustahkamligidan boshlanadi. Ya'ni global iqtisodga integratsiyalashuv parametrlari rivojlanishga tayyor iqtisodlar uchungina o'sish tramplini bo'lishi mumkin, fundamenti noto'g'ri prinsiplarga qurilgan iqtisod uchun integratsiyalashuv iqtisodiy o'sishga turtki bo'la olmaydi. O'zbekistonning global iqtisoddagi muvaffaqiyati u qurayotgan iqtisodiy model bilan bog'liq. O'zbekiston iqtisodiyotining kelajagi doimo o'zgarishlarga tobe xomashyo mahsulotlari eksportchisi bo'lib qolish yoki yuqori qiymatli mahsulot ishlab chiqarib, xalqaro savdoning qon tomiri bo'lgan global ta'minot zanjiriga qo'shilishiga bog'liq.

Ikkinchidan, davlatning global iqtisoddagi muvaffaqiyati, uning tez-tez uchrab turadigan global inqiroz va shoklarni singdirib, ichki iqtisodga ta'sirini kamaytiradigan institutsional tayyorgarlik bilan bog'liq. Buning sababi gipergloballashuvning asosiy qismlari bo'lmish xalqaro savdo va kapitalning erkin harakati, afsuski, mamlakat ichida g'oliblar bilan birga mag'lub qatlamni ham yuzaga keltiradi. Bu erkin savdodagi raqobat tufayli ish o'rnlari yo'qolishi sababli qashshoqlashishda ko'rindi.

Globalizm qarshisidagi rivojlanayotgan davlat sifatida O'zbekiston ham savdo erkinlashishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etib, erkin savdo orqali yutqazuvchi qatlamni ijtimoiy himoyalashga tayyor bo'lishi lozim. Shuningdek, moliya bozorlarini tayyorgarliksiz holda, tajribasizlik qilib erkinlashtirish ko'pchilik davlatlarga qimmatga tushganidan hukumat o'rnak olishi va tartibga solinmagan kapital oqimlari harakatidan o'ta ehtiyyot bo'lishi kerak. Hukumat bugungi kunda ichki makroiqtisodiy siyosat, soliq tizimi va moliyaviy qoidalar yaxlitligini qisqa muddatli foydaga asoslangan erkin kapital oqimidan ustun qo'yishi lozim", – deydi Yaponianing Tokio universiteti doktoranti ekspert Bekzod Zokirov.

Xulosa. Global jarayonlar milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi va

mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yanada kuchaytiradi. Bu esa mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi, ammo shuningdek, ularni iqtisodiy tartib va barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vazifani o'z ichiga oladi.

Shuningdek, savdo va xizmatlar, investitsiyalar, texnologiyalar, moliyaviy munosabatlar, xalqaro ish tizimi kabi iqtisodiy tizimlarni rivojida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda telekommunikatsiya texnologiyalari sohasining rivojlanishi immigratsiya jarayonlariga yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Masalan, biron bir Yevropa, Shimoliy Amerika yoki Yaponiya kompaniyasi osonlik bilan dunyoning istalgan mamlakatidagi kompyuter mutaxassisiga ma'lum bir dastur yaratish yuzasidan o'z joyidan turib topshiriq bera olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pulatov M. E. On the Need And Ways of Converting Some of the Components of Goodwill Into Identifiable Intangible Assets //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2019. – T. 8.
2. Pulatov M. E. Conceptual Issues Of Accounting Of Intellectual Capital //American Journal of Economics and Business Management. – 2019. – T. 2. – №. 1. – C. 117-123.
3. Pulatov M. System Analysis Of Intellectual Property Indicators Of Financial Statements //European Journal of Business and Economics. – 2012. – T. 6.
4. Pulatov M. INTELLECTUAL PROPERTY PARAMETERS OF FINANCIAL REPORTING. – 2016.
5. EGAMBERDIEVICH P. M., NODIROVNA M. S., OGLI J. A. E. FEATURES AND PROBLEMS OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN THE SERVICE SECTOR IN A MARKET ECONOMY //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 609-613.
6. Шарипов Т. С. Важность организации ресторанных услуг в управлении гостиничным бизнесом //Молодой ученый. – 2020.
7. Sharipov T. Овқатланиш хизматлари бозорида рақобатбардошлиқ масалалари //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2017. – №. 1. – C. 136-142.
8. Saidakhmedovich S. T., Bekhruz U. PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN THE REAL SECTOR //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 10. – C. 624-628.
9. Sidorov V. A. et al. INNOVATSIYA IQTISODIYOTI: TEKNOLOGIK YUTUQ MUAMMOSI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 8-15.
10. Saidakhmedovich, S. T. ., Nodirovna, M. S. ., & Khaydarjanovna, S. D. . (2022). Ways to Improve the Performance of Service Enterprises in Rural Areas. Middle European Scientific Bulletin, 24, 21-24.
11. Sharifov S. S., Astanaqulov S. Improving the welfare and employment of the population //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 31-41.

12. Saidahadovich S. S. The ways of Efficient use of Resources in Consumer Services //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021. – T. 2. – №. 8. – C. 22-29.
13. Artikov Z. S. In Competitions Conductrd by Belt Wrestling Use of Fast Technical Methods Efficiency //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 253-255.
14. Saifiddinovich A. Z., Shokhrukhovich U. F. Social Protection of the Unemployed and their Labor Increasing Competitiveness in the Market //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 61-63.
15. Артиков З. С. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2022. – №. 4 (152). – С. 59-65.
16. JournalNX-AMultidisciplinary Peer Reviewed Journal Published <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=7497936228629876027&btnI=1&hl=ru>
17. <https://lex.uz/docs/-6122858>
18. https://mitc.uz/uz/pages/about_ministry
19. <https://m.kun.uz/news/2021/03/21/globallashuv-kuchayishining-ozbekiston-iqtisodiyotiga-tasiri-qanday-boladi-ekspert-fikri>
20. <https://lex.uz/acts/-3202133>
21. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jahon_moliyaviy_inqirozi